


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan 2026-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan hajmi 12 671,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti fizik hajm indeksi 108,2 foizni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va fizik hajm indeksi



■ ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib:

- 1) elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,1 foizni;
- 2) ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 107,0 foizni;
- 3) suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish 106,5 foizni tashkil qildi .

*yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda


**2026-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	12 671,1	108,2
Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	57,1	94,4
<i>ulardan:</i>		
Metall rudalarini qazib olish	-	-
Tog'- kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat	33,7	82,2
Tog'- kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar	23,4	105,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	11 497,9	107,0
<i>undan:</i>		
Oziq- ovqat ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	2 356,7	104,5
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlari ishlab chiqarish	3 002,9	106,0
Yog'och va po'kak buyumlar , poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish	164,2	126,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,8	98,9
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	4 883,2	108,0
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	232,4	109,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	2,1	61,6
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	520,3	108,5

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘sish sur‘ati, foizda</i>
Metallurgiya sanoati	92,9	114,6
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	220,6	107,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	18,8	153,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1 013,8	126,1
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	102,3	106,5

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)
(yanvar-mart)



■	Ishlab chiqaradigan sanoati
■	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlardan ishlashi
■	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash
■	Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,1 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,4 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11 497,9 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 107,0 foizni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan
natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

	<i>O‘lchov birligi</i>	<i>2026-yil yanvar-mart</i>	<i>2025-yil yanvar-martga nisbatan foiz</i>
Benzin	<i>ming t.</i>	269,2	102,4
Dizel yoqilg‘isi	<i>ming t.</i>	160,4	2,8 m.
Mazut	<i>ming t.</i>	13,4	95,0
Kerosin	<i>ming t.</i>	59,2	140,2
Aroq	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	696,0	102,0
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100,0 foiz spirt</i>	1,9	147,3
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	-	-
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	<i>ming t.</i>	13,1	96,6
Tozalangan o‘simlik yog‘i	<i>t.</i>	3 843,1	94,4
Paxta tolasi	<i>ming t.</i>	37,1	124,9

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2026-yil yanvar- mart</i>	<i>2025-yil yanvar-martga nisbatan foiz</i>
Paxta (linti)	<i>t.</i>	3 050,0	70,2
Paxta chigiti	<i>ming t.</i>	34,7	76,4
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	<i>ming t.</i>	20,5	107,9
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	<i>t.</i>	223,0	104,0
Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chigit va boshqa chiqindilar	<i>ming t.</i>	23,1	98,6
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari)	<i>ming t.</i>	-	-
Chakana savdo uchun qadoqlangan paxtadan yigirilgan ip	<i>t.</i>	2 256,5	136,6
Yo'l qoplamalari uchun asfaltli aralashmalar	<i>ming t.</i>	56,9	2,8 m.


Shu bilan birga, oxirgi 5 yilning tegishli davrlari mobaynida un mahsulotlari eng ko'p ishlab chiqarish 2021-yilning yanvar- mart oylariga to'g'ri kelmoqda (2021-yil – 21,9 ming tonna, 2022-yil – 20,6 ming tonna, 2023-yil – 8,6 ming tonna, 2024-yil – 12,8 ming tonna, 2025-yil – 13,6 ming tonna, 2026-yil – 13,1 ming tonna).

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 marta ko'pni, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish 2,5 marta ko'pni, boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish 153,3 foizni, tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar 150,6 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 0,1 foizni, o'rta-yuqori texnologiyali 1,9 foizni, o'rta-quyi texnologiyali 49,8 foizni, quyi texnologiyali 48,2 foizni tashkil etdi.

Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2026-yilning yanvar-mart oylarida 4 927,0 mlrd.so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

**2026-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning
texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi,
(foizda)**



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 013,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 8,0 foizni) tashkil etdi.

2026-yil yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,1 foizga ko'payganligi kuzatildi.

2026- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiyasi ishlab chiqarish 106,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 83,8 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2025- yil yanvar- mart</i>	<i>2026-yil yanvar-mart</i>	<i>Farqi +/-</i>
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), <i>ming g.kal.</i>	256,7	215,2	-41,5
Elektr energiya, <i>mln.kVt.s</i>	459,0	488,7	29,7

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish) ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 102,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 foizni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 6,5 foizga ko'payganligi kuzatildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 29,3 % ga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 40,0 foizga ko'payganligi kuzatildi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2025- yil yanvar- mart	2026-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	7 745,7	10 016,0	2 270,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	104,8	103,1	-1,7

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi

Buxoro viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 39,3 foiz ulushi), Buxoro shahri (10,7 foiz), G'ijduvon tumani (8,9 foiz), Romitan tumani (5,1 foiz) hissasiga to'g'ri keladi.

2026-yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab
chiqarish hajmidagi ulushi, foizda



Hududlarning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Peshku (2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan (115,3 foizga), Vobkent (114,2 foizga), G'ijduvon (113,8 foizga) tumanlarida va Kogon shahri (114,3 foizga)da sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.


Sanoat mahsulotlari va aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari
(2026-yil yanvar-mart)

	<i>Sanoat mahsulotlari, mlrd.soʻmda ¹⁾</i>	<i>2025-yil nisbatan, foizda</i>	<i>Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming soʻmda</i>	<i>2025-yil nisbatan, foizda</i>
Buxoro viloyati	12 671,1	108,2	6 006,3	106,6
Buxoro sh.	1 358,6	113,4	4 450,8	111,7
Kogon sh.	445,0	114,3	6 720,6	113,2
<i>tumanlar</i>				
Olot	334,4	108,6	3 111,4	107,1
Buxoro	298,1	108,1	1 608,0	106,2
Vobkent	349,1	114,2	2 261,9	112,1
G'ijduvon	1 127,3	113,8	3 391,6	112,3
Kogon	620,3	107,9	7 036,3	105,9
Qorako'l	262,2	107,2	1 485,2	106,0
Qorovulbozor	4 981,9	109,6	240 894,4	108,1
Peshku	450,6	115,3	3 314,9	113,4
Romitan	644,9	107,2	4 150,0	106,0
Jondor	342,5	107,8	1 782,8	106,1
Shofirkon	257,1	106,1	1 354,5	105,4

**yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda*

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Qorovulbozor tumanida (240 894,4 ming so‘m) va Kogon tumanida (7 036,3 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (6 006,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda
(2026-yil yanvar-mart)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga o‘rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o‘sish sur‘atlari Peshku (2025-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 113,4 foizga), Kogon shahar (113,2 foizga) va G‘ijduvon (112,3 foizga) tumanlarida kuzatilgan bo‘lsada, faqatgina Romitan (106,0 foizga) va Shofirkon (105,4 foizga) tumanlarida pasayish sur‘ati kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub‘ektlari tomonidan 4 560,2 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi hamda kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 36,0 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shofirkon (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 91,0 foiz), Jondor (85,5 foiz), Vobkent (71,6 foiz) tumanlari va Kogon shahri (64,2 foiz) da kuzatildi. Shu bilan birga, eng kam ulush G'ijduvon (34,8 foiz), Romitan (35,4 foiz) hamda Qorovulbozor (3,0 foiz) tumanlari kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda
(2026-yil yanvar-mart)**



***Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi***

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 212 ta loyiha bo'yicha 4 927,0 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, yanvar-mart oylarida 10 971,6 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(yanvar-mart)

	<i>2025-yil</i>	<i>2026-yil</i>
Loyihalar soni, <i>birlik</i>	125	212
Korxonalar soni, <i>birlik</i>	110	200
Ishlab chiqarish hajmi, <i>mlrd. so'm</i>	1 998,7	4 927,0
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, <i>mln. AQSH doll.</i>	6,7	11,0
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, <i>birlik</i>	148	464


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 196,4 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. O'tgan yilda qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, hisobot davrida bu ko'rsatkich 10,5 foizni tashkil etgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil etadi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 3 312 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 730 tasi, G'ijduvon tumaniga 397 tasi, Kogon tumaniga 305 tasi, Jondor tumaniga 274 tasi, Romitan tumaniga 251 tasi, Buxoro tumaniga 249 tasi, Vobkent tumaniga 236 tasi, Shofirkon tumaniga 180 tasi, Peshku tumaniga 168 tasi, Kogon shahriga 163 tasi, Olot tumaniga 163 tasi, Qorako'l tumaniga 131 tasi va Qorovulbozor tumaniga 65 tasi to'g'ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik
(2026-yil yanvar-mart)



2026-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 111 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo'lib, ulardan Buxoro shahriga 18,0 foizi, G'ijduvon tumaniga 15,0 foizi, Buxoro tumaniga 12,0 foizi, Romitan tumaniga 11,0 foizi, Kogon tumaniga 10,0 foizi, Kogon shahriga 8,0 foizi, Olot tumaniga 8,0 foizi, Jondor tumaniga 8,0 foizi, Vobkent tumaniga 7,0 foizi, Qorako'l tumaniga 4,0 foizi, Peshku tumaniga 4,0 foizi, Qorovulbozor tumaniga 3,0 foizi hamda Shofirkon tumaniga 3,0 foizi to'g'ri keladi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Sanoat bu – xom ashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

Mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

Tayyor mahsulot - sotish uchun mo'ljallangan va texnik hamda sifat talablariga muvofiq keladigan, tashkilotning ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi bo'lgan tovar